

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'RGAATISH JARAYONIDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKILLANTIRISH

Usmanova Dilorom Maxmudovna

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Samarqand shahri

Annotatsiya; Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Shunga ko'ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilishi lozim. Har bir o'quvchida zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun mакtabning boshlang'ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha muassasalarda, keyinroq maktabdan yuqori sinflardagi tahlim va tarbiyani rivojlantirish, keyinchalik kasb-hunar kollejlarida o'z bilimlarini davom ettirishlari lozim.

Kalit so'zlar; mehnat ,qobiliyat, jamiyat,bozor iqtisodiyoti,

Mehnat ta'limining mazmuni va uning tashkil etilishi. Mehnat tahlimi dasturida o'quvchilar mehnat darslarida egallashi lozim bo'lgan ilmiytexnik bilimlarining, mehnat ko'nmalarini va malakalarini hajmi hamda mazmuni belgilab boriladi. Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga mehnat tahlimi berish, ularni tarbiyalash sohasida qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z ifodasini topadi. Mehnat tahlimi dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Mehnat tahlimi o'qituvchisi o'zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda o'qituvchi o'quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib mahlum o'zgarishlar kiritishi mumkin. Bu boradi bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik printsiplarga to'la – to'kis javob berishi, ilmiy va mafkuraviy jihatdan puxta bo'lishi, murakkabligi ortib borishi hisobga olingan holda va mehnat tahlimining tanlangan didaktik tizimiga muvofiq ravishda, muayyan izchillikda bayon qilinishi turmush tajribasi bilan bog'langan bo'lishi kerak. XXI asr-intellektual qobiliyatlarni namayon qilish asri bo'lib, bunda har bir mamlakat kuch-qudratini uning moddiy boyliklari emas balki uning kelajagi bo'lgan yosolarining intellektual salohiyati

belgilab beradi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi sharoitida bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirishning o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyati jamiyatning butun tuzilmalarida, jumladan, ta’lim va tarbiya tizimida ham ifodasini topib, bu tizimni qayta tashkil etish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, barkamol, komil insonni tarbiyalash kabi vazifalarni hal etilishini taqozo qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil avgust oyida bo‘lib o‘tgan IX sessiyasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risi”da va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da qonunlar o‘sha paytda ta’lim jarayonining o‘zidagi va o‘qitish uslubidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolyapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo‘q deb ko‘rsatilib, anashu masalalarni hal etish yo‘llari belgilab berildi. Matematik ta’limni amalga oshirishga yangicha yondashish talab etilgan (o‘rta umumta’lim mакtablar, matematik ta’limdan keskin farq qiluvchi). Shuning uchun ham yuqoridagi qonunlar asosida umumiyl o‘rta ta’limni isloh qilishda matematik takomillashtirishga, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarishga katta e’tibor berildi. Ta’lim tizimida matematik ta’lim mazmuni va metodlarini qayta ko‘rish o‘quvchilarga beriladigan bilimlarning nazariy darajasini orttirish, ularga o‘qish va olgan bilimlarini amalda qo‘llash malakalarini tadbiq toptirish, komil inson bo‘lib yetishi uchun barkamol, ijtimoiy dunyosi boy, ahloqiy pok insonlarni tarbiyalashga sharoitlar yaratishga qaratilgandir. Matematikadan Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalari, mакtab o‘quvchilariga ta’lim berish, tarbiyalash hamda ularni hayotga tayyorlashni takomillashtirish uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida so’zlagan nutqi. 1997 yil 29 avgust – T.: “Sharq”, 1997.
2. "Ta’lim to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. — Toshkent, Sharq, 1997.
3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Barkamol avlod —O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent., Sharq, 1997.